

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ANORBOYEV ABDULLA ABDUHAKIMOVICH

**“HARBIY TAYYORGARLIK” FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK
ZAXIRADAGI OFITSERLARNING SHAXSIY-KASBIY SIFATLARINI
TARBIYALASH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Anorboyev Abdulla Abduhakimovich

“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-
kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi 3

Анорбоев Абдулла Абдухакимович

Методика воспитания личностно-профессиональных качеств будущих
офицеров запаса при преподавании дисциплины «Военная подготовка».... 25

Anorboev Abdulla Abduhakimovich

Methodology of education of personal and professional qualities of future reserve
officers in teaching “Military training” 49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ANORBOYEV ABDULLA ABDUHAKIMOVICH

**“HARBIY TAYYORGARLIK” FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK
ZAXIRADAGI OFITSERLARNING SHAXSIY-KASBIY SIFATLARINI
TARBIYALASH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped6045-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tpmi.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Medetova Raushan Mamadiyarovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Safarova Roxat Gaybillayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Dosumxodjayev Farux Abdirazakovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855)511-02-69; faks: (99855)511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

M.Quronov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

O.U.Musurmonkulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.f.d. (PhD)

Sh.Q.Mardonov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-innovatsion va raqamli texnologiyalarini keng joriy etish asosida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasida: "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"¹ strategik vazifa sifatida qabul qilingan va shu borada bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasiga xalqaro standartlarni qo'llash, ta'lim va innovatsiyaning uyg'unligini ta'minlash modellarini amaliyotga qo'llash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy davlatlarining ta'lim tizimida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash yo'lini belgilashga ustuvorlik berilib, bunday ishlarni amalga oshirishning qulay shart-sharoitlar vujudga keltirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashda konseptual yondashuvlar asosida uzluksiz rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashda ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, tizimli tahlil qilish va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasining shakl va usullaridan samarali foydalanish metodlarini ishlab chiqish, pedagogik strategiyalarini yaratish, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, kreativ qobiliyatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasining faoliyatni samarali tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalardan foydalana olishning meyoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston manfaatlariga nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida sadoqatli, mas'uliyatli, fidoyilik, hamjihatli bo'lish, ularni himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish, bularning barchasi bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish, "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasini rivojlantirish hozirgi kunda juda dolzarbdir. Harbiy ta'lim oldida turgan muammolarni tahlil qilish, ularni xalq etish vazifalarini belgilash zamonaviy texnologiyalar yordamida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning harbiy-intellektual salohiyatini oshirish muammolari pedagogika fanida va amaliyotida hal qilish uchun nazariy asoslar va texnologiyalarning yetishmasligi bilan jamiyatning ehtiyojlari va zaruriyatlari o'rtasida qarama-qarshilikni vujudga

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, and Republic of Korea).

keltiradi. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash harbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydagi 03/23/837/0241-son yangi tahriri, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi va 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-367-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4496 m-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida zaxiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-sonli "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida milliy tarbiya jarayonini intensivlashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'limda foydalanish va unga qo'yiladigan didaktik talablarning ilmiy-nazariy asoslari yurtimiz olimlari U.Begimqulov, R.Djurayev, O.Jamoldinova, X.Ibraimov, Sh.Mardonov, A.Maxmudov, R.Medetova, N.Muslimov, O.Musurmanova, Sh.Pozilova, Z.Raximov, Z.Saliyeva, R.Safarova, X.Tojiboyeva, M.Quranovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda bo'lajak ofitserlarni tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari X.Akrabayev, Sh.Akramova, Z.Alimardonov, S.Ahrorov, A.Vaxobov, F.Dosumxodjayev, A.Kuranboyev, V.Pantin, N.Tolipov, A.Uzokov,

K.Xaydarov, A.Xonimqulov, I.Egamberdiyev, A.Ergashev, N.Eshnayeov kabi faylasuf, huquqshunos, sotsiolog, pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.Azarova, V.Glebov, A.Kozachok, A.Koklevskiy, A.Kutuzov, D.Mesheryakov, O.Paleyeva, O.Suxanovlar harbiy xizmatchilarni kasbiy tayyorlash muammosini pedagogik va A.Bodalev, O.Gavrilova, N.Grishina, V.Mixaylovskiy, Ya.Podolyak, A.Tarasovalar psixologik jihatdan o'rgangan. A.Bashlakova, V.Gerasimov, O.Dobrovolskov, V.Jiltsov, A.Zaxarov, A.Kiselev, V.Yudinlarning pedagogik tadqiqotlarida harbiy kadrlarni tanlash, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muammolari tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Dewey, Y.Doll, M.Martin, D.Raven, B.Spitzberglar texnologik kompetentlikni rivojlantirish va kompetentliklar tushunchalari, ularning umumiy nazariy jihatlarini yoritib o'tganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha A-OT-2021-11 loyihasi doirasida amalga oshirilgan (2021-2022).

Tadqiqotning maqsadi: oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasidan foydalanishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan "stress holatida qaror qabul qilish" simulyatsiyalari hamda amaliy-tarbiyaviy usullarni hayotiy vaziyatlarga integratsiyalashning pedagogik asoslarini takomillashtirish;

"Bir ustoz – bir kursant" mentorlik modeli asosida shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan kasbiy strategiyalarni takomillashtirish;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatleri darajasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish.

Tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga "O'zbekiston Respublikasi Harbiy xafvsizlik va mudofaa universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash kursi, "O'zbekiston Respublikasi Harbiy xafvsizlik va mudofaa universiteti harbiy tibbiyot institutining rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash kursi va O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazining 304 nafar respondentlari jalb qilingan holda, oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarining "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarining "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash mazmuni, o'qitishning zamonaviy shakl, metod va vositalardan foydalanib o'qitilishida tarbiya jarayonini takomillashtirish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarining o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish usullari qo'llanildi; qiyosiy-tahlil, sintez, taqqoslash, sotsiologik usullar (anketa, suhbat, intervyu); pedagogik kuzatish; tajriba-sinov ishi tajribasi; matematik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi "Harbiy tayyorgarlik" fani doirasida o'zini-o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan jasorat, mardlik, jomardlik va vatanparvarlik sifatlarini "stress holatda qaror qabul qilish" simulyatsiyalari hamda kasbiy faoliyatni rag'batlantiruvchi amaliy-tarbiyaviy usullarni hayotiy vaziyatlarda namoyon etishga qaratilgan integratsiya asosida takomillashtirilgan;

"Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash modeli "Bir ustoz – bir kursant" mentorlik munosabatini tashkil qilish orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan kasbiy strategiyalarni kursantning shaxsiy maqsadlari va xizmat g'oyalariga muvofiq shaxsga yo'naltirilgan pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari stress vaziyatlarda o'zini boshqarish, fan materialini o'zlashtirish, milliy qahramonlar jasoratiga munosabat, yangicha usullar taklif qilish, odob-axloq qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini yuqori (bilim, ko'nikma va sifatlar barqaror; kasbiy yetuklik va shaxsiy mas'uliyat yuqori), o'rta (bilim va ko'nikmalarni qo'llay oladi, lekin mustahkamlanishga muhtoj; hissiy-irodaviy jihatdan barqaror), quyi (bilim va ko'nikmalar yetarli emas, mas'uliyat va intizom zaif, shaxsiy-kasbiy sifatlar yetarlicha shakllanmagan) daraja ko'rsatkichlarini aniqlash asosida ishlab chiqilgan;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari milliy-tarbiyaviy an'analar bilan xorijiy harbiy-pedagogik tajribalar uyg'unligida Amir Temur jasorati va "Temur tuzuklari"da ifodalangan harbiy strategiyalarni "Harbiy tayyorgarlik" fani mazmuniga integrativ-modulli tatbiq etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

"Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash" nomida monorgafiya chop etilgan;

yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni so'zsiz va aniq bajara oladigan bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash uchun oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning "Artileriyada otishi va o't ochishni boshqarish" va "Saf tayyorgarligi" fanlaridan ilmiy-uslubiy majmualar ishlab chiqilgan;

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash uchun "Harbiy tayyorgarlik" jarayonida harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi" mavzusida o'quv qo'llanma yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarining "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitish jarayonida zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodlarini qo'llash bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbaalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati harbiy tayyorgarlik fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodlariga yo'naltirilgan muayyan pedagogik mazmuni, shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash darajasini belgilovchi darajalar, jarayon modeli, ushbu modelning pedagogik asoslari, uni amaliyotda qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi hamda ilmiy-uslubiy tavsiyalardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, oliy ta'lim muassasalarining harbiy o'quv bo'linmalarida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodlari bo'yicha ishlab chiqilgan model, tayanch, ishlanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalarimizdan tayyorlash oliy harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, shuningdek, harbiy yo'nalishda mutaxassis tayyorlaydigan ta'lim muassasa pedagoglari o'zlarining amaliy faoliyatlarida keng foydalanishlari mumkin. Ta'lim muassasalari uchun "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashni tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda ish tajribasini boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bo'yicha tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi "Harbiy tayyorgarlik" fani doirasida o'zini-o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan jasorat, mardlik, jomardlik va vatanparvarlik sifatlarini "stress holatda qaror qabul qilish" simulyatsiyalari hamda kasbiy faoliyatni rag'batlantiruvchi amaliy-tarbiyaviy usullarni hayotiy vaziyatlarda namoyon etishga qaratilgan integratsiya asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Harbiy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi" nomli o'quv qo'llanmaga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 10/2536-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy

sifatlarini tarbiyalashning mavjud holatini pedagogik tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash modeli “Bir ustoz – bir kursant” mentorlik munosabatini tashkil qilish orqali ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan kasbiy strategiyalarni kursantning shaxsiy maqsadlari va xizmat g‘oyalari bilan muvofiq shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar “Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash” nomli monografiyaga kiritilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi Ilmiy kengashining 2024-yil 27-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi). Natijada, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda shaxsiy-kasbiy sifatleri tarbiyalash jarayonining pedagogik modelini takomillashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan;

bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari stress vaziyatlarda o‘zini boshqarish, fan materialini o‘zlashtirish, milliy qahramonlar jasoratiga munosabat, yangicha usullar taklif qilish, odob-axloq qoidalariga amal qilish ko‘nikmalarini yuqori (bilim, ko‘nikma va sifatlar barqaror; kasbiy yetuklik va shaxsiy mas’uliyat yuqori), o‘rta (bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay oladi, lekin mustahkamlanishga muhtoj; hissiy-irodaviy jihatdan barqaror), quyi (bilim va ko‘nikmalar yetarli emas, mas’uliyat va intizom zaif, shaxsiy-kasbiy sifatlar yetarlicha shakllanmagan) daraja ko‘rsatkichlarini aniqlash asosida ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar “Harbiy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmaga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 10/2536-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Vatanga xizmat qilish yo‘lini tanlagan yoshlarning harbiy vatanparvarligini rivojlantirish, kasbni tanlash, kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish, kasbiy motivatsiyani shakllantirish, ijtimoiy muhit normalariga integratsiyalash, oliy ta’lim muassasalarining harbiy o‘quv bo‘linmalari talabalari xalqaro standartlar asosida tayyorlangan;

bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari xorijiy harbiy-pedagogik tajribalar hamda milliy-tarbiyaviy an’analar bilan uyg‘un holda Amir Temur jasorati va “Temur tuzuklari”da ifodalangan harbiy strategiyalarni “Harbiy tayyorgarlik” fani mazmuniga kiritish orqali kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar “Harbiy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmaga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 10/2536-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash, tanqidiy fikrlash, kreativlikka va tezkor qarorlar qabul qilishga o‘rgatish orqali bilimlar o‘zlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola,

xususan, 5 ta maqola respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda va 2 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy hajmi 157 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslari**” deb nomlangan. Mazkur bobda “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bugungi kunda ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, bu bobda muammoning falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda o‘rganilishi va “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning mavjud holati yoritib berilgan. Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy faoliyatga tayyorlashning amaldagi holati va muammolar tahlili, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga ta’sir etuvchi omillari aniqlashtirilgan, “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarining pedagogik shart-sharoitlari, tuzilmasi, komponentlari, “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari keltirilgan.

“Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishlarda “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish” deb belgilangan². Bu “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning pedagogik strategiyalarining

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori.

optimal yo‘llarini tanlash va uning metodik asoslarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarbiyalashning amaldagi holati va muammolari, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni zamonaviy harbiy talablar asosida tayyorlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Bu boradagi muammolarni hal qilish uchun oliy ta‘lim muassasalarining harbiy o‘quv bo‘linmalarida innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor berish va bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi “Harbiy tayyorgarlik” fani doirasida o‘zini-o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan jasorat, mardlik, jomardlik va vatanparvarlik sifatlarini “stress holatda qaror qabul qilish” simulyatsiyalari hamda kasbiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi amaliy-tarbiyaviy usullarni hayotiy vaziyatlarda namoyon etish zarur. Integratsiya asosida takomillashtirilgan “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishning maqsadi – bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni harbiy qism va bo‘linmalarda (guruh, vzvod (batareya)) boshqarish yoki, qurol-aslahalarni ta‘mirlash sohalarida tashkiliy va boshqarish (ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish) faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Mashg‘ulotlarning asosiy qismi texnik va nazariy bilimlarga yo‘naltirilgan. Shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan mashg‘ulotlar kam, shu sababli, mashg‘ulotlarda o‘zaro muloqot va psixologik treninglar ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Hozirgi kunda harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarga ko‘proq nazariy bilimlar, taktik va taktik-maxsus tayyorgarlik va harbiy-texnik, harbiy-maxsus tayyorgarlik fanlari o‘rgatiladi, lekin bu jarayonda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar kam. Shu nuqtai nazardan o‘quv metodlarining samaradorligini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash, zamonaviy texnika va resurslarni joriy etish bu jarayonni yanada yaxshilaydi.

“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarbiyalash modeli “Bir ustoz – bir kursant” mentorlik munosabatini tashkil qilish orqali ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar bilan kasbiy strategiyalarni kursantning shaxsiy maqsadlari va xizmat g‘oyalariga muvofiq shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali takomillashtirildi. Har bir bosqichda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, ularni bosqichma-bosqich bajardi. Harbiy tayyorgarlikda bu usul bo‘yicha o‘tkaziladigan darslar bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni qiyinchiliklarga tayyorladi, stress holatlarida tezkor va samarali harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Interaktivlik esa, o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qildi. Mukofot tizimi (ball, reyting, unvonlar) o‘yin elementlarini ta‘lim jarayoniga kiritish orqali bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda sog‘lom raqobat, mas‘uliyat hissi va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratdi. Harbiy tayyorgarlikda bu tizim bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning ijobiy xulq-atvorini rag‘batlantirdi, tashabbuskorlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga undadi. Mukofotlar orqali bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar fan bo‘yicha chuqur bilim olishga va shaxsiy-kasbiy sifatlarni yanada rivojlantirishga intildi. “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarbiyalashning ta‘lim-tarbiyasi bo‘yicha vazifalarni to‘laqonli bajarilishi, vatanparvarlik, shu bilan birga etakchilik, intizom, chidamlilik va texnik tajribaga ega bo‘lishi, ulardan

safarbarlik davrida bo‘linmalarni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lish va bir vaqtning o‘zida harbiy vazifalarni fuqarolik majburiyatlari bilan birlashtirishni talab qiladi. Ushbu tadqiqotimiz “Harbiy tayyorgarlik” fani doirasida shaxsiy-kasbiy sifatlarni samarali rivojlantiradigan ta’lim metodikasini aniqlash va o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlaridan foydalanish natijasida ta’lim samaradorligiga erishish dissertatsiyamizning dolzarbligini ifodalaydi. O‘z ishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi. Bunday jiddiy, o‘ta mas’uliyatli va sharaflil vazifani uddalashda oliy ta’lim muassasalarining harbiy o‘quv bo‘linmalaridagi “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashni hayotiy va professional ko‘nikmalarini ilm-ma’rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida oliy ta’lim muassasalarining harbiy o‘quv bo‘linmalari hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasining pedagogik xususiyatlarini yoritib berish maqsadida tadqiqot doirasida, “shaxsiy” va “kasbiy” sifatlarini tarbiyalash kabi tushunchalar tahliliga alohida e’tibor qaratildi. *Shaxsiy sifatlilar* – bu insonning o‘ziga xos xususiyatlari, uning xarakteri, ichki dunyosi va ma’naviy-axloqiy me’yorlar. Shaxsiy sifatlilar insonning qanday qilib o‘zini tutishini, boshqalar bilan munosabatlarni qanday o‘rnatishini, maqsadlariga erishish uchun qanday harakat qilishini va qanday axloqiy qarorlar qabul qilishini belgilaydi. *Kasbiy sifatlilar* – bu insonning o‘z kasbiga, ishiga bo‘lgan munosabatini, professionallik darajasini va kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar va qobiliyatlarni anglatadi. Kasbiy sifatlilar, shuningdek, har bir soha yoki kasbga xos bo‘lib, insonning o‘z kasbini samarali va sifatli bajarishiga yordam beradi.

“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasida muhim tarkibiy qism bo‘lib, u nafaqat bilim, ko‘nikma, meyorlar va qadriyatlar tizimini, balki “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasini rivojlantirish uchun texnologik vositalar imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarbiyalash metodikasi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu sifatlilar bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning professional va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishi, unda xizmatga bo‘lgan munosabati, ishlash qobiliyati va shaxsiy odob-axloq omillarga bog‘liqdir. Kasbiy sifatlilar esa, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda o‘z kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallashi hamda zamonaviy harbiy texnikalarni va taktikalarni puxta o‘zlashtirishidir. Shaxsiy sifatlilar bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar uchun boshqaruvchanlik qobiliyatlilar, qarorlar qabul qilish, o‘zgarishlarga moslashuvchanlik bo‘lish muhimdir. Bu sifatlilar faqat harbiy faoliyatga emas, balki

shaxsiy hayotga ham ta'sir qiladi. Harbiy vazifalarni bajarish jarayonida harbiy bilimlarni qo'llash, harbiy muhitning ekstremal sharoitida optimal yechimlarni mustaqil tanlash hamda qarorni to'g'ri qabul qilish kiradi. Harbiy ta'lim esa, bu pedagogik jarayon bo'lib, uning vazifasi yetuk harbiy xizmatchi shaxsida zamonaviy bilim va dunyoqarashning jasorat, mardlik, jomardlik va vatanparvarlik sifatlarini bilan uyg'unlikda shakllantirishdan iboratdir.

Ilmiy izlanishlar davomida harbiy-pedagog olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganib chiqdik. Bizning ilmiy ishimizga yaqin ilmiy ishlar mamlakatimizda F.Dosumxodjaye, K.Xaydarov, Sh.Eshonqulovlar. Ular bo'lajak ofitserlarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan bo'lib, ular talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammolarini ko'rib chiqqan. Harbiy tayyorgarlik fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi va boshqa ilmiy adabiyotlarda aniqlanmadi. Bo'lajak ofitserlar o'rtasida asosiy axloqiy-ruhiy sifatlarini, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda kasbiy kompetentlik haqidagi tadqiqot bo'yicha muammolarini yoritib berilgan bir nechta tadqiqotlar mavjud. B.Xasonboyev bo'lajak ofitserlarda axloqiy-ruhiy sifatlarini qaror toptirishning nazariy-pedagogik asoslarini va A.Xonimqulov chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirishni tadqiq etgan. Biroq, "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bo'yicha hali ham maxsus o'rganish obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

MDH davlatlaridan A.Koklevskiy tomonidan 2014-yilda bajarilgan "Методическая система формирования технологической компетентности будущих специалистов военной подготовки в классическом университете" dissertatsiyasida bo'lajak mutaxassislarining harbiy tayyorgarlik sharoitida texnologik kompetentlikni shakllantirishga bag'ishlangan. Olim o'z tadqiqotida faoliyatning bir qancha turlarini aniqlab, ularga o'ziga xos xususiyatlarni bergan.

Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi bir qator olimlar tomonidan tahlil qilingan. Masalan, bo'lajak zaxira ofitserlarida shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash usullariga E.Yudin ishontirish, namuna, mashq qilish, rag'batlantirish, majburlashni ko'rsatgan bo'lsa, J.Xo'jayev bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi kasbiy rivojlantirishning asosi bo'ladi deb hisoblaydi. A.Novikova tomonidan ilgari surgan g'oya – "xabardorlikdan g'ayratli ish faoliyatiga o'tish", ya'ni umumiy holda yangi ta'lim paradigmasiga o'tish bilan belgilaydi. Z.Alimardonov tadqiqotida bo'lajak ofitserlarning kasbiy takomillashtirishida har tomonlama yuqori bilim va yuqori professional mahoratga ega harbiy xizmatchi bo'lish, favqulodda va keskin sharoitlarda o'zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qilish, harbiy san'atni o'rganish kabi ko'nikma va malakalarni bilishlari lozimligini ilmiy asoslaydi. A.Shinkarenkoning so'zlariga ko'ra, "ofitserning shakllangan ekstremal kompetentligi, bir tomondan, shaxsning mavjud kognitiv, hissiy-ixtiyoriy, xulq-atvor resurslarini, mavjud shaxsiy-kasbiy sifatlarini va ijtimoiy-kasbiy tajribani faollashtirishga imkon beradi, bu esa, harbiy mutaxassisning ekstremal vaziyat sharoitlariga moslashishini va samarali professional harakatlarga tayyorligini ta'minlaydi, boshqa tomondan, – kasbiy faoliyat sohasida o'zini o'zi anglash

qobiliyatiga asoslangan o‘z-o‘zini rivojlantirishning samarali shaxsiy yo‘nalishlarini yaratish yo‘nalishi bo‘yicha imkoniyatlar doirasini kengaytiradi”. N.Eshnayevning ilmiy izlanishida professional harbiy mutaxassis o‘z kasbining yetuk bilimdoni, zamonaviy harbiy texnika va qurollardan maqsadli foydalana oladigan, o‘z Vatani, xalqi sha‘ni va qadr-qimmatini doim himoya qiluvchi, yuqori intellektual salohiyatli, jismoniy-g‘oyaviy shakllangan shaxs ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning mohiyati, tartibi, mazmuni va rivojlanishini aniqlash muammosiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar etarli darajada emas ekan.

Bugungi kunda tarbiyaning milliylikiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchikovlik bilan o‘rganilayapti. Natijada, pedagogika fani va amaliyotida milliy tarbiyaning o‘ziga xos o‘rni borligi tan olindi.

Mamlakatimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash hamda milliy qadriyatlar negizida ifodalangan ona-Vatanga e‘tiqodni shakllantirish haqidagi fikrlardan unumli foydalanish, milliy qahramonlarning aynan Vatanga bo‘lgan e‘tiqodini namuna sifatida ko‘rsata olish (To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabilar), mashhur allomalarning vatanparvarlik haqidagi fikr-mulohazalaridan unumli foydalana olish, Vatanga e‘tiqodsiz insonlarning xatti-harakati tufayli sodir bo‘lgan voqealarning oqibati natijasida (Toshkent va Toshkent viloyatidagi, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlaridagi va Andijon voqealari) xalqimiz va Vatanimizga yetkazilgan ozorlar to‘g‘risida ma‘lumot berish orqali Vatanga e‘tiqodning vujudga kelishi mumkinligini maqsad qilib olishimiz lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu yoshlarni Vatanga, uning tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga va qadriyatlariga hurmat, muhabbat va sadoqat hissini shakllantirishga qaratilgan tarbiya turidir. Uning maqsadi yosh avlodni o‘z Vatanga mehr bilan yondashish, uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirishdan iborat. Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatanga va uning qadriyatlariga nisbatan bo‘lgan muhabbatini mustahkamlash, barqaror jamiyat shakllantirishga xizmat qiladi. “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasining amaliy faoliyatga doir komponentlari harbiy texnika, qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish kabi sifatlarini tarbiyalash bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda, interfaol metodlardan foydalanish va bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi modeli keltirilgan. “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash

metodikasining innovatsion ta'lim texnologiyalari mazmuni ochib berilgan, mustaqil ta'lim jarayonida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini rivojlantirishga doir didaktik imkoniyatlari, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilash, shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash, ularning liderlik, etikaga amal qilish, jamoada ishlash, stressga bardosh bera olish va boshqa shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyasi yoritib berilgan.

Tadqiqotimiz davomida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, o'quv materiallarini bo'lajak zaxiradagi ofitserlar tomonidan o'zlashtirilishi, harbiy mutaxassislar tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalaridagi harbiy o'quv bo'linmalarida to'plangan o'quv-moddiy baza va tajribaning mavjudligini, harbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarga o'qitiladigan har bir fan uchun qo'yiladigan talablari orqali ma'lum bir qobiliyatlarning shakllanishi, maqsadga erishish, tashabbuskorlik, mas'uliyatlik, intizomi, yangi g'oyalarni yaratish va nostandart qarorlar qabul qilishda uning yechimlarni topish qobiliyati hamda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelga "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi ochib berilgan va bular quyidagicha: og'zaki metodlar, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, suhbat metodi. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning mustaqil ta'lim jarayonida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda topshiriq va vazifalarni tahlil qilishning keys-stadi metodini qo'llash asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasini yaratishni lozim deb topdik. Keys-stadi biror obyekt yoki jarayonlardagi qandaydir aniq hamda real vaziyatning yozma tavsifi bo'lib, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda haqiqiy vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko'rib chiqish, mumkin bo'lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyadir.

O'quv mashg'ulotlarda interfaol metodlar (strategiya, grafik-organayzer) bilan ishlash bo'lajak zaxiradagi ofitserlar tomonidan o'quv axborotlarni qabul qilish va yaxshi o'zlashtirish imkoniyatini yaratdi, professor-o'qituvchilar tomonidan berilgan ma'lumotlarni qabul qilish, kreativ fikrlashni va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali bo'ldi. "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda kvestlar va o'yin elementlarini joriy etish, "Topshiriqlar zanjiri" shaklida interaktiv darslar tashkil qilish va mukofot tizimini (ball, reyting, unvonlar) yo'lga qo'yish bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirishda muhim omil bo'ldi. Kvestlar va gamifikatsiya o'yin prinsiplari asosida tashkil etilgan ta'lim usullari, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarni faollashtirish, ularning qiziquvchanligini uyg'otish va ijobiy munosabat hosil qilishga xizmat qildi. "Harbiy tayyorgarlik" fanida kvestlar yordamida real harbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar zanjiri yaratilib, bo'lajak zaxiradagi ofitserlar mustaqil fikrlashga, tezkor qaror qabul qilishga o'rgatildi. Bu esa, ularning shaxsiy-kasbiy malakalarini rivojlantirishda

samarali ta'sir ko'rsatdi. "Topshiriqlar zanjiri" usuli har bir topshiriqni avvalgisiga bog'lab, o'quv jarayonini bir butun sifatida tashkil etadi. Bu usullar o'qitish jarayonini qiziqarli va faol ishtirok etishini, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning o'qishga qiziqishini oshirdi va ularda samarali bilim olishlarini ta'minladi.


Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari xorijiy harbiy-pedagogik tajribalar hamda milliy-tarbiyaviy an'analar bilan uyg'un holda Amir Temur jasorati va "Temur tuzuklari"da ifodalangan harbiy strategiyalari "Harbiy tayyorgarlik" fani mazmuniga kiritildi.

"Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash modeliga qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlaydigan uchta blokni o'z ichiga qamrab oldi: 1. Maqsadli blokda ijtimoiy buyurtma, maqsad, vazifalar va tamoyillar aks ettirildi. Ijtimoiy buyurtma sifatida "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi, bo'lajak zaxiradagi ofitserlarda harbiy bilim va intellektual saviyani tarkib toptirish belgilab olindi. 2. Pedagogik jarayonli blokda "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasining shakl, metod, vositalari bir-biriga bog'liq ravishda yoritildi, "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bosqichlari ketma-ketlikda aks ettirildi. Mazkur pedagogik shart-sharoitlarni sinovdan o'tkazish va tekshirish "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash metodikasi bo'yicha tajribaviy faoliyat davomida amalga oshirildi. 3. Natijaviy blokda "Harbiy tayyorgarlik" fanini o'qitishda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalanganligining baholash mezonlari va darajalari aks ettirilgan.

Modelning bloklari o'zaro bir-biriga aloqador bo'lib, yaxlitlik kasb etadi. Ularni faqat shartli ravishda rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida tizim komponentlarining o'zaro harakatini yanada aniqlashtirish maqsadida nazariy jihatdan qismlarga ajratish mumkin. Model bloklarining har biri o'zining funktsiyalari, maxsus tanlab olingan mazmuni va didaktik o'ziga xosliklariga ega bo'lib, shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashga doir umumiy pedagogik vazifaning ma'lum bir qismini hal etishga xizmat qiladi.

Qadriyatli-motivatsion komponenti – umumkasbiy fanlar blokidagi "Jangovar ish" fani negizida shakllanadigan harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rejalashtirish bo'yicha hujjatlar bilan ishlash borasida harbiy faoliyatida foydalana olish, harbiy tizimining talablariga rioya etish, yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga yo'naltirishni amaliyotga joriy etish bilan ifodalanadi. Umumharbiy nizom qoidalariga hamda harbiy normalariga amal qilishi, harbiy pedagogik faoliyatda kasbiy va qadriyatli me'yorlarni, talablarni shakllantirish hamda bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning kasbiy burchini vijdonan bajarishga mos keladigan qadriyatli tamoyillar va qoidalar majmuidir.

Kognitiv-faoliyatli komponent – bu bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning kasbiy faoliyatida zamonaviy bilim berish orqali harbiy pedagogik mahoratini namoyon etish, amaliy mashg'ulotlarda ko'rgazmalilik tamoyiliga asoslangan holda berilgan



1-rasm. Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash modeli

bilimlarni yanada mustahkamlash, o'zining psixologik bilimlarini kuchaytirish orqali ruhiy imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, bo'lajak zaxiradagi ofitserlar jamoasi bilan ishlay olish, harbiy bilimlarni qo'llay olish, har qanday sharoitda psixologik jihatdan baquvvat va irodali bo'lish kabi sifatlarini kiritish mumkin.

